

## **Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash**

### **KONSEPSIYASI**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) pedagog kadrlar tayyorlash ta'limini tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, respublikada pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, oliy pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro ta'lim dasturlari asosida transformatsiya qilish, pedagogik ta'lim sohasida uzluksizlik va uzviylikni hamda ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash ta'limini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, istiqboldagi vazifalarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

#### **2-bob. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining joriy holati**

Bugungi kunda respublikada maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun yagona yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash ishlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Vazirlik pedagog kadrlar tayyorlash sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- yagona konseptual yondashuv asosida oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash siyosatini yuritish;

- pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- pedagogik ta'limning uzviyligi va uzluksizligini, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari joriy etilishini ta'minlash;

- pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

- pedagogika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda — pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari) boshqaruv tizimini takomillashtirib borish.

Respublikada oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlashning quyidagi **tartibi** belgilab qo'yilgan:

pedagog kadrlarni tayyorlash faqat kunduzgi va kechki ta'lim shakli bo'yicha tashkil etiladi, sirtqi ta'lim shakliga qabul amalga oshirilmaydi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlashga davlat buyurtmasini shakllantirish Vazirlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan pedagog kadrlarni davlat buyurtmasidan tashqari tayyorlash pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda Vazirlik takliflari asosida amalga oshiriladi;

oliy pedagogik ta'lim yo'nalishida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash Vazirlik xulosasi asosida amalga oshiriladi;

Vazirlik tomonidan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostika qilish tizimi joriy etiladi.

pedagog kadrlar tayyorlashga davlat buyurtmalarini prognoz qilish va shakllantirishda Vazirlikning ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish va boshqarish bo'yicha yagona dasturiy kompleksi (ERP) ma'lumotlari tahlil qilinadi va tegishli takliflar ishlab chiqiladi.

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) respublikada pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Respublikada pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida maktabgacha va maktab ta'limi vazirining pedagogik ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, bir vaqtning o'zida Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori hisoblanadi.

### **3-bob. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari**

Quyidagilar pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning **strategik maqsadlari** hisoblanadi:

pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish;

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish;

oliy pedagogik ta'lim dasturlarini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish;

pedagogik ta'lim sohasida uzluksizlik va uzviylikni, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash.

Belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish quyidagi **ustuvor yo'nalishlar** bo'yicha amalga oshiriladi:

respublikada maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari uchun pedagog kadrlar tayyorlashni yagona yondashuv asosida amalga oshirish;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlariga ilg'or xorijiy universitetlarning boshqaruv tizimlarini joriy etish;

pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari mazmunini xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda takomillashtirish;

pedagogika ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun malaka talablarini belgilash va ularni doimiy takomillashtirib borish;

oliy pedagogik ta'lim mazmunining maktabgacha va maktab ta'limi dasturlari mazmuni bilan uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash;

pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish;

ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, ularni maktabgacha va maktab ta'limi tizimi muammolariga qaratish;

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

pedagog kadrlar tayyorlash tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

### **1-§. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida takomillashtirish va sifatini oshirish**

Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish maqsadida, bosqichma-bosqich:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tomonidan pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun yagona malaka talablari ishlab chiqiladi va barcha pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari ushbu talablar asosida faoliyat yuritadi;

boshqaruv tizimi raqamlashtiriladi va Learning management system (LMS) tizimi joriy etiladi;

mavjud fakultetlar optimallashtirib, pedagogika oliy maktablari tashkil etiladi;

ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari shakllantirilgan, xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

pedagogik ta'limning o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlari amalga oshiriladi;

pedagogik ta'lim rivojlanishini muvofiqlashtirish maqsadida Vazirlik huzurida Pedagogik ta'limni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi faoliyat ko'rsatadi.

### **2-§. Oliy pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro ta'lim dasturlari asosida transformatsiya qilish**

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim mazmunini **xalqaro ta'lim dasturlari** asosida transformatsiya qilish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimi "Yangi O'zbekiston" universiteti tajribasi asosida bosqichma-bosqich tubdan takomillashtiriladi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining mavjud fakultetlari maqbullashtirilib, bosqichma-bosqich "Aniq fanlar", Tabiiy fanlar", "Filologiya fanlari", "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim", "Ijtimoiy fanlar" va "Amaliy fanlar" pedagogika oliy maktablari tashkil etiladi;

pedagogika oliy maktabi dekan tomonidan boshqariladi va ta'lim sifatini ta'minlash, pedagogika maktabini rivojlantirish, ilmiy faoliyatni boshqarish hamda ushbu yo'nalishlarda xalqaro aloqalarni amalga oshirish uning asosiy vazifalari etib belgilanadi;

akademik faoliyat raqamlashtirilgan boshqarish tizimi (Learning management system) orqali yo'lga qo'yiladi hamda "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" (HEMIS) axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga birinchi kursdan xalqaro ta'lim dasturlari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida xalqaro tajribalar asosida talabalar bilimni baholashning yangi tizimi joriy etiladi;

mustaqil bilim olishga o'rgatishga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari pedagogik ta'lim amaliyotiga kiritiladi;

xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida dars berish uchun professor-o'qituvchilarni tanlab olish tizimi joriy etiladi;

xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan ta'lim yo'nalishlarida dars berish uchun professor-o'qituvchilarni tanlab olish tizimi yo'lga qo'yiladi;

tanlab olingan professor-o'qituvchilarni xorijiy universitetlarga maqsadli malaka oshirishga yuborish tizimi joriy etiladi;

Universitet pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti sifatida ta'lim dasturlarini xalqaro tajriba asosida transformatsiya qilish jarayonlarini muvofiqlashtiradi;

Universitet tarkibidagi Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi faoliyati xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish asosida takomillashtiriladi.

### **3-§. Pedagogik ta'lim sohasida uzluksizlik va uzviylikni, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash**

Pedagogik ta'lim sohasida uzluksizlik va uzviylikni, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

pedagog kadrlar tayyorlash ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni va Prezident maktablari o'qituvchilarini keng jalb qilish;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlarini maktabgacha va maktab ta'limining dolzarb muammolari yechimiga qaratish;

professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarning nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

talabalarining ta'lim jarayonidan tashqari vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatni olib borishlariga shart-sharoit yaratish;

Pedagogik innovatsiyalar markazlarini tashkil etish orqali professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan yaratilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, metodika va vositalarini amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlarini joriy qilish;

professor-o'qituvchilar va xodimlar uchun aniq va shaffof karyera o'sish dasturini yaratish, pedagogik faoliyatdan boshqaruv faoliyatiga o'tish jarayonlarini yengillashtiruvchi maxsus tayyorgarlik kurslarini tashkil qilish;

pedagogik kadrlar tayyorlashda dual ta'lim shaklidan keng foydalanish hamda haftalik o'quv mashg'ulotlarini "4+2" tartibida takomillashtirish.

#### **4-§. Pedagogik ta'lim sohasining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash**

Pedagogik ta'lim sohasida uzluksizlik va uzviylikni, ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

pedagoglar tayyorlash tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirib borish;

xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida pedagog kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish, hamkorlikda qo'shma ilmiy-tadqiqot loyihalarini muntazam amalga oshirish, pedagoglarning xalqaro tadqiqot guruhlarida faol ishtirokini rag'batlantirish, hamkorlikda o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalar va seminarlar sonini ko'paytirish, xalqaro ilmiy va ta'lim loyihalarini amalga oshirish.

#### **5-§. Pedagogik ta'limni raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish**

Pedagogik ta'lim sohasida raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

Sun'iy intellekt (AI) asosida individual yondashuvni ta'minlovchi ta'lim texnologiyalarini pedagogik jarayonga joriy etish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

VR (virtual reality – virtual reallik) va AR (augmented reality – qo'shimcha reallik) texnologiyalarini pedagogik amaliyotga keng tatbiq etish orqali nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar uyg'unligini ta'minlovchi yangi o'quv jarayonini yaratish;

raqamli pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish;

pedagogik ta'lim tizimini raqamlashtirish maqsadida katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish, ta'lim samaradorligini prognozlash va baholash uchun zamonaviy analitik-tahlil vositalarni joriy qilish.

#### **4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar**

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

pedagog kadrlar tayyorlash tizimi yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtiriladi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimiga Learning management system (LMS) tizimi joriy etiladi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining mavjud fakultetlari optimallashtirilib, pedagogik maktablar tashkil etiladi;

Universitet respublika pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining flagmaniga aylantiriladi;

pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlari ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro ta'lim dasturlari asosida takomillashtiriladi;

pedagog kadrlar tayyorlash ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligi ta'minlanadi;

pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilarini xorijiy universitetlarga maqsadli malaka oshirishga yuborish tizimi joriy etiladi.